


HISOBOT | 2024-YIL, 4-OKTYABR

Toshkent shahridagi havo sifatini baholash va O‘zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirishning “yo‘l xaritasi”



Jahon bankining “*Toshkent shahridagi havo sifatini baholash va O‘zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirishning “yo‘l xaritasi”*” hisoboti (o‘zbek, rus va ingliz tillarida) O‘zbekiston poytaxtidagi havo sifatining diagnostik tahlilini taqdim etadi, shuningdek, mamlakatda havo sifatini boshqarish mexanizmini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Hisobot Jahon banki hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ko‘magida tayyorlangan. U Markaziy Osiyo mamlakatlarida havo sifati bo‘yicha olib borilayotgan qator tadqiqotlarning bir qismi hisoblanadi. Ushbu hisobotlar mintaqa hukumatlari bilan muloqotni qo‘llab-quvvatlash va havo sifati bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish hamda ushbu sohada bilim almashish uchun platforma yaratishni maqsad qilgan.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham havo sifati bilan bog‘liq kasalliklar va bevaqt o‘lim holatlarining aksariyati diametri 2,5 mikron (PM_{2,5}) bo‘lgan muallaq zarrachalar tufayli yuzaga keladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ularni aholi salomatligiga eng katta xavf tug‘diradigan ifloslantiruvchi sifatida tan olgan. Global havo sifati monitoringini olib boruvchi [IQAir](#) portali ma‘lumotlariga ko‘ra, Toshkent ham Markaziy Osiyoning boshqa shaharlari kabi ko‘pincha dunyodagi havosi eng ifloslangan shaharlar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston hukumati ham havo sifatini boshqarish jarayoni mahalliy, milliy hamda mintaqaviy darajada hamkorlikdagi, kompleks va tarmoqlararo sa’y-harakatlarni talab qiladigan jiddiy muammo ekanligini tan oladi. Xususan, 2024-yil 21-mayda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi JSST tavsiyalariga mos keladigan [bino ichidagi atmosfera havosi sifati bo‘yicha yangi PM_{2,5} standartini](#) qabul qildi. Bu mamlakatdagi havo sifatini yaxshilashga qaratilgan dastlabki maqsad va muhim qadamdir.

Hisobotning asosiy xulosalari va tavsiyalari

- Toshkent shahrida PM_{2,5} zarrachalarining konsentratsiyasi qish oylarida eng yuqori cho‘qqiga chiqadi, ularning havo tarkibidagi miqdori ruxsat etilgan xalqaro standartlardan sezilarli darajada oshadi. Toshkentdagi PM_{2,5} ning o‘rtacha yillik konsentratsiyasi JSST tomonidan kubometrda 5 mikrogram (mkg/m³) darajasida belgilangan o‘rtacha yillik me‘yordan 6 barobar ortiqroqdir.

- Toshkentda atmosfera havosining PM_{2,5} zarrachalari bilan ifloslanishi aholi salomatligi va iqtisodiyotga katta zarar yetkazmoqda. Baholashlarga ko‘ra, ushbu vaziyat natijasida poytaxt aholisi salomatligiga yetkazilgan zarar O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 0,7 foiziga teng bo‘lishi mumkin.
- Toshkentda PM_{2,5} zarrachalari bilan antropogen ifloslanishning asosiy manbalari isitish sektori (28 foiz), transport (16 foiz) va sanoat (13 foiz) hisoblanadi. Yozda shamol tashib yuradigan chang kabi transchegaraviy manbalar (barcha PM_{2,5} zarrachalari ifloslanishining 36 foizi) ustunlik qiladi, qishda esa tijorat va turar-joylarni isitish PM_{2,5} ifloslanishining asosiy manbai hisoblanadi.
- Hisobotda O‘zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirishning "yo‘l xaritasi" keltirilgan. U havo sifati standartlari va tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni yangilash, havo sifatini boshqarish milliy strategiyasini ishlab chiqish hamda zarur muvofiqlashtirish mexanizmini yaratishni o‘z ichiga olgan ustuvor harakatlarni tavsiya qiladi. Hisobotda havo sifatini yaxshilash bo‘yicha davlat siyosati chora-tadbirlari, jumladan, havoning ifloslanishiga eng katta hissa qo‘shuvchi sanoat, transport va issiqlik sohasidagi chora-tadbirlar taklif etiladi. Hisobotda, shuningdek, shamol tashib yuradigan changni kamaytirish choralari tavsiya etilgan.
- "Yo‘l xaritasi" aholining havoni zararli ifloslanishiga ta’sirchanligini kamaytirish va uning farovonligini yaxshilash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarga sarmoya kiritishni tavsiya qiladi.
- "Yo‘l xaritasi" (i) ishlatiladigan yoqilg‘i sifatini va isitish moslamalarining samaradorligini oshirish, (ii) binolarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, (iii) isitish uchun ishlatiladigan ekologik toza manbalarga o‘tish hisobiga isitish sektorining chiqindilar chiqarishini kamaytirish mumkinligini nazarda tutadi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritish va iqtisodiy rag‘batlantirishlarni talab qiladi.
- Shuningdek, uy xo‘jaliklariga o‘z binolarining energiya tejaydigan va ekologik toza isitishiga sarmoya kiritishlari uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bu turdagi yordam, ayniqsa, ushbu ehtiyojlar uchun xarajatlarni qoplay olmaydigan zaif uy xo‘jaliklari uchun ko‘proq zarur, deyiladi Jahon banki hisobotida.

Ushbu hisobot Barqaror va chidamli landshaftlar uchun global hamkorlik (PROGREEN), [Jahon banki guruhining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun hamkorlik” jamg‘armasi](#) va Buyuk Britaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilgan [Markaziy Osiyoda iqtisodiy rivojlanish uchun samarali boshqaruv dasturi \(EGED\)](#) moliyaviy ko‘magida tayyorlangan.